

## 2020-yilning yanvar-mart oylarida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar- mart oylarida Xorazm viloyatida jami 532,7 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 107,0 % ni tashkil etdi.

### Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -  
**532,7 mlrd. so‘m**

Yirik qurilish tashkilotlari ulushi - **3,8 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar ulushi -  
**64,3 %**

Norasmiy sektor ulushi -  
**31,9 %**

Jami qurilish ishlari hajmida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 20,0 mlrd. so‘m ishlar bajarildi. Bu esa tarmoqning jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 3,8 % dan iborat ekanini hamda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 90,6 % ni tashkil etganini anglatadi.

Kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari

hajmining 64,3 % i to‘g‘ri keldi. Ular tomonidan 342,8 mlrd. so‘m ishlar bajarilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 110,8 % ni tashkil etdi. Umumiy bajarilgan ishlarning 31,9 % i norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelib, 169,9 mlrd. so‘m bunyodkorliklar amalga oshirildi. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 102,3 % ni tashkil etganini ko‘rsatadi.


## 2020-yilning yanvar-mart oylaridagi qurilish ishlari tarkibi

2020-yil yanvar-mart oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 90,6 % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin o'sish sur'ati esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,8 % dan iborat bo'ldi.

Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,3% ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlari tarkibi (mlrd. so`m)**



**2020-yil  
yanvar-mart**

Xorazm viloyatida qurilish ishlari


## 2020-yil yanvar-mart oylarida qurilish ishlaringning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringning asosiy qismini qurilish loyihalari, ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tashkil etadi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 81,6 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,6 % punktga ko'paydi.


Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda jamiga nisbatan 13,2 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,3 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 5,2 % to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan ulushi 1,3 % punktga kamaydi.

## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari tarkibi



- Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



2020-yil  
yanvar-mart

Xorazm viloyatida qurilish ishlari


## 2020-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringin asosiy qismi qurilish loyihalari, ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan ishlardan iborat. Bunda o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,2 % ni tashkil qilganini ko'rish mumkin.

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,2 % ga o'sgan.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlaringin o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 85,7 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari  
(mlrd. so`m)**




**2020-yil  
yanvar-mart**


Xorazm viloyatida qurilish ishlari

## 2020-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlarining mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 500,2 mlrd. so‘m qurilish-montaj ishlari bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 93,9 % dan iborat bo‘ldi.



Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 32,5 mlrd. so‘m qurilish-montaj ishlari bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 6,1 % ni tashkil qildi.




## 2020-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

Shahar va tumanlarda bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari quyidagilardan iborat:

Bajarilgan qurilish ishlari hajmi Urganch shahrida 142,5 mlrd. so'mni, Bog'ot tumanida 31,2 mlrd. so'mni, Urganch tumanida 54,4 mlrd. so'mni, Xonqa tumanida 38,5 mlrd. so'mni, Xiva tumanida 52,4 mlrd. so'mni tashkil qildi.


**Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari  
(mlrd. so'm)**



## 2020-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan ulushi, % da)

Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilgan qurilish ishlari hajmining viloyatda eng yuqori ulushi Urganch shahriga to‘g‘ri kelib, 26,7 % ni tashkil qiladi. Shu bilan bir qatorda bu ulush Urganch tumaniga 10,2 %, Xiva tumaniga 9,8 % va Yangiariq tumaniga 6,3 % dan to‘g‘ri keldi.

**Qurilish ishlari (jamiga nisbatan ulushi, % da.)**




## 2020-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da.)


Qurilish ishlari eng yuqori o‘sish sur’ati quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi:

Bajarilgan qurilish ishlari jadal borishi tufayli o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan Urganch shahrida 117,2 % ni, Hazorasp tumanida 123,4 % ni tashkil qildi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da.



## 2020-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari tarkibi (mlrd. so'm)



Shahar va tumanlarda binolar va inshootlarni qurish ishlari tahliliga e'tibor qaratilsa, Urganch shahrida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 6,5 mlrd. so'm ishlar bajarilgani qayd etildi. Bu esa o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 132,3 % ni tashkil qilganidan darak beradi.



## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan 104,8 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 129,1 % ni tashkil qildi.

Norasmiy sektor tomonidan 31,2 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 89,3 % ga yetdi.

Urganch tumanida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 7,2 mlrd. so‘m ishlar bajarilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 158,2 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan 29,4 mlrd. so‘m qurilish ishlari amalga oshirilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 98,3 % ni tashkil qildi.

Norasmiy sektor tomonidan 17,8 mlrd. so‘m qurilish ishlari hajmi bajarilgan bo‘lib, bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 161,0 % ni tashkil qilgani e’tiborga molik.

Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi bo‘limi  
Nashr uchun mas’ul: SH.Babajanov  
Telefon: (0362) 224-65-22

2020-yil  
yanvar-mart

Xorazm viloyatida qurilish ishlari

11